

Biz uchun muqaddas kun

09.10.2022

Biz uchun muqaddas kun

6-oktabr kuni YRB fakulteti 114-guruh talabalari ishtirokida guruh rahbarimiz Egamova Dilbar Haydarovna bilan Olmazor tumanida joylashgan diniy yodgorliklardan biri Hazrati Imom ziyoratgohiga tashrif buyurdik. Majmua (XVI-XX asrlarda) imom Abu Bakir Muhamad ibn Ali Ismoil ash-Qaffol Shoshiy qabri atrofida shakllangan. Qabr va uning atrofida vujudga kelgan qabriston va me'moriy yo'dgorlik majmuasi Hazrati imom nomi bilan ataladi.



Bu yerda kitob rastatalari tashkil qilingan bo'lib, u yerda sharq adabiyotiga oid ko'plab qo'lyozmalar xususan Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni karimni bir qancha nusxalarini, hattoki ularni orasida Xalifa Usmon tomonidan tayyorlangan Qur'oni karimni ham ko'rdik. Ushbu kitob bir qancha davlatlarda bo'lganini, buyuk bobomiz Amir Temur davrida yurtimizga olib kelingaligini muzey xodimi bizga aytib o'tdi, undan tashqari biz juda katta bu maskan haqida bilimlarga, sir- sinoatlarga ega bo'ldik. Kelgusida yana tashrif buyurishimizni mamnuniyat bilan aytib, safarimizni yakunladik va muzey xodimi aytib o'tgan muzey haqidagi ma'lumotlarni o'rtoqlarimizga ham ulashdik .



YRB fakulteti 114-guruh talabasi Mo'minova Muxlisa axboroti